

## YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO'G'RISIDA

### HUQUQIY XULOSA.

#### 1. Loyihaning turi: Shartnoma

2. **Loyihaning nomi:** «Toshkent viloyati Dori-Darmon» AJ nomidan Nizom asosida xarakat kiluvchi direktor A.A.Karimov, keyingi urinlarda «SOTUVCHI» bir tomondan va Quyi Chirchiq tumani Tibbiyot birlashmasi nomidan Nizom asosida xarakat kiluvchi birlashma boshlig'i A.Eshmuratov keyingi urinlarda «SOTIB OLUVCHI» ikkinchi tomondan, O'zbekiston Respublikasida Farmakologik ro'yxatdan o'tgan, tibbiyotda ishlatishga ruxsat etilgan mahsulotlarni va boshqa turdagi mahsulotlarni sotish va xarid qilish bo'yicha shartnoma loyihasi.

3. **Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma'lumot:** Quyi Chirchiq tuman Tibbiyot birlashmasi tomonidan ishlab chiqilgan va huquqiy ekspertizadan o'tkazish uchun 2022 yil 27 yanvar kuni markazga kiritilgan.

Quyi Chirchiq tuman Tibbiyot birlashmasi bilan «Toshkent viloyati Dori-Darmon» AJ o'rtasida tuzilayotgan, tibbiyotda ishlatishga ruxsat etilgan mahsulotlarni va boshqa turdagi mahsulotlarni sotish va xarid qilish uchun ko'zda tutilgan to'lov to'g'risida shartnoma loyihasi huquqiy ekspertizadan o'tkazildi.

Taraflar o'rtasida tuzilayotgan mazkur shartnoma loyihasi O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik Kodeksi va O'zbekiston Respublikasining 1998 yil 29 avgustdagi «Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy - huquqiy bazasi to'g'risida»gi Qonuni va bos'hqa tegis'hli qonun hujjatlari talablariga mos ravishda tuzilgan.

Taraflardan biri shartnoma majburiyatlarini bajarmagan taqdirda tomonlarga javobgarlik choralari qo'llanilishi, kelis'hmovchiliklar paydo bo'lgan taqdirda o'zaro hal qilish yoki tumanlararo iqtisodiy sudida hal qilish tartibi, barcha qo'shimcha va o'zgartirishlar yozma ravishda ikki tomonlama imzolanib tasdiqlangan holda tuzilishi nazarda tutilgan.

Shartnoma loyihasida taraflarning javobgarligi va nizolarni hal yetish tartibi va boshqa kelishilgan barcha shartlar qonun hujjatlari talablariga mos keladi va uni tuzish maqsadga muvofiq.

Markaz boshlig'i



Sh.I.Suleymanov

" 27 " yanvar 2022 yil